

**MILLIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARINI DARS JARAYONIDA MANAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Primova Maftuna Furqat qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qtuvchisi

Boymurodova Sarvinoz Saparali qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya : *Ushbu maqolada Shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning nazariy jihatlarini, Kichik yoshdagi o'quvchilar ma'naviy –axloqiy sifatlarini shakillantirishning pedagogik shart –sharoitlari, Sinf dan tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy –axloqiy sifatlarini shakillantirishning pedagogik tizimi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, pedagogik, axloqiy, shakillantirish, nazariy, rivojlantirish.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-
НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В
ПРОЦЕССЕ УРОКА НА ОСНОВЕ ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ**

Примова Мафтуна Фуркат кизи

*Преподаватель Национального педагогического университета Узбекистана
имени Низами*

Боймуродова Сарвиноз Сапарали кизи

*студентка 2-го курса Национального педагогического университета
Узбекистана имени Низами*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические аспекты духовно-нравственного развития личности, педагогические условия формирования духовно-нравственных качеств младших школьников и педагогическая система формирования духовно-нравственных качеств младших школьников во внеурочной деятельности.*

Ключевые слова: *Личностный, педагогический, нравственный, формирующий, теоретический, развитие.*



IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY STUDENTS IN THE LESSON PROCESS BASED ON THE HARMONY OF NATIONAL VALUES

Primova Maftuna Furqat qizi

Lecturer at the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Boymurodova Sarvinoz Saparali qizi

*is a 2nd year student at the National Pedagogical University of Uzbekistan named after
Nizami*

Abstract: *This article discusses the theoretical aspects of the spiritual and moral development of the individual, the pedagogical conditions for the formation of the spiritual and moral qualities of younger students, and the pedagogical system for the formation of the spiritual and moral qualities of younger students in extracurricular activities.*

Key words: *Personality, pedagogical, moral, shaping, theoretical, development.*

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma'naviy – ahloqiy jihatdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lishni talab etadi. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liq.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi. Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida, yo'lga



qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma'ruza, bahs-munozara, konferentsiya, seminar hamda debatlaridan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Etnik sabr- toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an'analarni, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarni avaylab qabul qilganlar. Oila qadriyatlar va qon-qarindoshlik munosabatlarning qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila- urug'. Har bir xalqning o'ziga yarasha urf-odatlar, marosimlari bo'ladi. Agar biz dunyo xalqlarining hayotiga nazar tashlasak bir-biriga o'xshamagan, turli-tuman marosimlarni ko'ramiz. Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayoti-faoliyatidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Marosimlarda milliy, diniy urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida etkazmog'i lozim. Darhaqiqat, an'analari, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarini ajralmas qismidir. O'zbeklarning urf-odatlar, marosimlari va bayramlari rang-barang hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir necha ming yillar mobaynida shakllanib kelgan. Masalan, bola tug'ilishi (chilla, beshik kerti), sunnat to'yi, nikoh va motam marosimlarida O'rta Osiyo xalqlariga xos umumiy o'xshashliklar mavjud. O'zbeklarda jamoa munosabatlariga oid urf-odatlarini shaharda





mahalla, qishloqda qishloq jamoasi aks ettirgan, ularning faoliyatida erkaklar va bolalar qatnashgan. O'tmishda barcha udumlar, marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o'zbek mavsumiy marosimlarini quyidagi turkumlarga tasnif etish mumkin:

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g'oyani va milliy ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish:

1. tushunchaning ta'rifi (definisiyasi);
2. tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi);
3. milliy ma'naviy qadriyatlarning mazmuni;
4. ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyusiyasi);
5. ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funktsiyalari);
6. tuzilishi (strukturasi);
7. amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi);

8. shakllari va ko'rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim.

2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ma'naviy –axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart –sharoitlari.

Axloq so'zi – lotincha «moros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qacda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy konundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina bolalarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim bolalarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun,





jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir.

Jumladan:

1. Axloqiy onglilik,
2. Axloqiy qadriyatlar,
3. Axloqiy his-tuyg'ular. Axloq ijtimoiy ong shakllanishidan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.

Axloq odamlarning birbiriga. jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Ahloq-kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob-shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomalamunosabatlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha pedagogika yosh avlodni ma'naviy - axloqiy rivojlanishida tarbiya va tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarbiya-tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma'naviy- axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy- axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatleri barham toptirish.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda amalga oshirish. Turli xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin, ommaviy axborot vositalari – oynai jahon, radio va boshqalar bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab





mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy- axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- g'oyaviy va tarbiya ishining ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini xurmat qilgan xolda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va MTTlarining tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlariga suyanish;
- bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutish.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya printsiplarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amaga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy- axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Ma'naviy- axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1-guruh. Axloqiy ongni, axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3-guruh. Axloqiy his tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Yuqorida keltirilgan barch metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar asosan; bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish; axloqiy xulq-atvor no'rmalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani noo'rin tadqiq qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyan man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Maktabgacha ta'lim- tarbiya to'g'risida"gi Qonun,.-T.;O'zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat".2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O'qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.
6. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashiroti T.; 2013 y
7. Volotina L.R. Doshkol'naya pedagogika M. Lavrint. 2005y.